



TERMIZ IQTISODIYOT VA  
SERVIS UNIVERSITETI

# TISU ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL  
ISSN 2992-9016

№1/2026

**Muassis:**  
TERMIZ IQTISODIYOT VA  
SERVIS UNIVERSITETI

**TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi**

**Ilmiy-uslubiy jurnal**

**Bosh muharrir:**

Sattarov Abdusamat  
Umurqulovich

**Bosh muharrir o'rinbosari:**

Qobulov Eshbolta Atamuratovich

**Mas'ul kotib:**

Turayev Baxtiyor Ergashevich

**Dizayner:**

Meyliqulov Shahboz  
Xolmamatovich

**Jurnal bir yilda to'rt marotaba  
nashr etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2023-yil 1-martdagi № 066379-raqamli guvohnomasi bilan ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 8-maydagi 370/5-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan hamda iqtisodiyot fanlari bo'yicha dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal "Termiz Publishing center" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi:

22.12. 2025.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8

"Times New Roman" garnitirulasi.

Ofset bosma.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 11.

Adadi 100 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma № 4.

Jurnalning elektron shakli bilan

<https://scientific.tues.uz>

web saytida tanishish mumkin.

**Tahririyat manzili:**

Termiz sh., "Yulduz" MFY,  
"Ibn Sino" ko'chasi, 38B-uy.

## TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Ixtisham Ul-Haq – i.f.d., prof. (Pokiston)

L. Narrada Gamage – i.f.d., prof. (Shri Lanka)

Maxmudov N.M. – i.f.d., prof.

Xudoyqulov S.K. – i.f.d., prof.

Pardayev J.M. – i.f.f.d., (PhD).

Absamatov A.E. – i.f.n., dots.

Eshkarayev S.Ch. – k.f.f.d. (PhD), dots.

Ruzmetov B. – i.f.d. prof.

Xudoyqulov X.X. – i.f.d. (DSc), prof.

Abdullayev I.S. – i.f.d., prof.

Xotamov O.Q. – i.f.d., prof.

Otamurodov Sh.N. – i.f.d. (DSc), dots.

Yarmatov Sh. Ch. - i.f.f.d. (PhD).

Mamadjanova T.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.

Shodiyev A.A. – i.f.f.d. (PhD).

Jurayev X.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.

Xakimov Z.I. – i.f.f.d. (PhD).

Amonov M.O. – i.f.f.d. (PhD).

Absamatov A.E. - i.f.f.d. (PhD).

Rahmatullayev B.Ch. – i.f.f.d. (PhD).

Namozov G'.Sh. – i.f.f.d. (PhD).

# MUNDARIJA

## **SH.E.BOBOMURATOVA**

O'zbekiston va uning chegara mamlakat hududlarida til siyosati.....4

## **D.MUQUMOVA**

Ja'far Muhammad Termiziyning "Mendagi Boysun" she'ri: lingvistik tahlil.....12

## **D.B.IBODULLAYEVA**

O'zbek va ingliz tillaridagi teatr atamalarining chog'ishtirma tahlili.....15

## **Z.M.AMIRKULOVA**

"Panoh" hikoyasida tarixiy voqealik va badiiy talqin uyg'unlashuvi.....18

## **M.A.MEYLIQULOVA**

O'quvchilarda adabiy nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari.....22

## **SH.A.DONAYEVA**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda 4K modelining ahamiyati.....25

## **G.E.TURAYEVA**

Texnologiyalashgan jamiyatda bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy tarbiyasini shakllantirish .....28

## **M.X.XAYDAROVA**

Magistratura talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish.....31

## **F.A.XAYITOVA**

O'quvchilarda kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishning milliy va jahon tajribasi.....35

## **D.R.YUNUSOV, J.I.UMIROV**

Fanni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish.....38

## **F.E.JOMONQULOVA, S.B.UZAKOVA**

Yoshlarni axborot xurujlaridan asrash, ularda axborot imunitetini shakllantirishda zamonaviy usullardan foydalanishning o'рни.....42

## **U.A.TASHBAYEVA**

Boshlang'ich sinflarda bolalar adabiyotini o'rgatishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanish metodikasi.....47

## **SH.T.TOSHOVA**

Talabalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari.....51

## **R.I.ESONOVA, N.M.SALOXITDINOVA**

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni 4K modeli asosida tashkil etish metodikasi va baholash mexanizmlari.....54

## **G.Z.ERMATOVA, G.E.TURAYEVA**

Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari.....58

## **D.D.NORQUVATOVA, N.M.SALOXITDINOVA**

STEAM yondashuvining boshlang'ich matematika ta'limidagi ahamiyati.....65

## **M.O.ZARIPOVA, N.M.SALOXITDINOVA**

Zamonaviy ta'limda baholash tizimlarining transformatsiyasi va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....68

## **M.A.NORBOSHEVA, N.ABDIYEVA**

Giperaktiv bolalar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ishlar.....72

## **G'.A.MAMARAJABOV**

Mustaqillik yillarida o'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va amaliy tajriba.....76

## **T.J.YARMATOV, F.J. YARMATOV**

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu Lug'atit Turk" asari etnofolklor manba.....80

## **SH.T.YAKUBOVA**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyat shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....83

## **N.B.RAUPOVA**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy qadriyatlariga bo'lgan munosabatini shakllantirish metodikasi ("Qutadg'u bilig" va "Hibat ul-haqoyiq" dostonlari namunalari misolida).....86

## **M.SH.BURIYEVA**

The role of code-switching in Uzbekistan's diverse society: identity and cultural exchange.....91

## **Z.M.ALLAYEV**

Traditions of dream interpretations in linguoculturology.....96

## **Z.F.ERGASHEVA, G'.Y.SALOMOV**

Ona-tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi.....99

## **L.A.RAIMOV**

A comparative analysis of ai and human translation in advertising texts.....103

## **A.A.QARAQULOV**

Mengziyo Safarov qissalarida ona-tabiatning poetik manzarasi.....107

## **N.A.UMAROVA**

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar darslarida loyiha faoliyatini tashkil etish nazariyasi va metodikasi.....112

## **M.T.MENGNAROVA**

Ingliz va O'zbek tillaridagi rang komponentli maqollarda madaniy birliklarning ahamiyati.....116

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
“Ingliz filologiyasi” kafedrası o‘qıtuvchısı  
**Mengnarova Maftuna Toshboy qızı**  
E-mail: maftunamengnarova97@gmail.com

## INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI RANG KOMPONENTLI MAQOLLARDA MADANIY BIRLIKLARNING AHAMIYATI

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi rang komponentli maqollarda aks etuvchi madaniy birliklarning semantik va aksiologik ahamiyati qiyosiy-lingvokulturologik yondashuv asosida yoritilgan. Natijalarga ko‘ra, o‘zbek tilida oq rang poklik va ezgulik, qora rang sinov, mehnat va musibat semalari bilan ko‘proq bog‘lanib, ingliz tilida esa qora rang ko‘pincha ayblash yoki salbiy baho kontekstida, yashil rang qanoatsizlik va taqqoslash modeli orqali, oltin/kumush esa qadriyat va nutq madaniyati bilan uyg‘unlashib keladi.

Tayanch so‘zlar: rang komponentli maqol, paremiologiya, lingvokulturologiya, madaniy kod, konnotatsiya, aksiologiya, xromatonim.

## ЗНАЧЕНИЕ КУЛЬТУРНЫХ ЕДИНИЦ В ПОСЛОВИЦАХ С ЦВЕТОВЫМ КОМПОНЕНТОМ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье с позиций сравнительно-лингвокультурологического подхода раскрывается семантическая и аксиологическая значимость культурных единиц, отражённых в пословицах английского и узбекского языков с цветовым компонентом. Результаты анализа показывают, что в узбекской языковой картине мира белый цвет преимущественно ассоциируется с чистотой и добром, а чёрный — с испытанием, трудом и жизненными трудностями. Полученные выводы могут быть использованы в переводоведении и межкультурной коммуникации.

Ключевые слова: пословица с цветовым компонентом, паремология, лингвокультурология, культурный код, коннотация, аксиология, хроматоним.

## THE SIGNIFICANCE OF CULTURAL UNITS IN COLOUR-COMPONENT PROVERBS IN ENGLISH AND UZBEK

### ANNOTATION

This article examines, from a comparative linguocultural perspective, the semantic and axiological significance of cultural units reflected in English and Uzbek proverbs containing colour components. The findings indicate that in Uzbek, white is predominantly associated with purity and benevolence, while black is linked to trial, labour and hardship. In the English data, black most frequently appears in contexts of accusation or negative evaluation; green activates a dissatisfaction-and-comparison model; and gold/silver is aligned with value orientations and the culture of speech. The results are relevant to translation studies and intercultural communication.

Key words: colour-component proverb, paremiology, linguoculturology, cultural code, connotation, axiology, chromatonym.

### KIRISH

Maqollar xalq og‘zaki ijodining eng ixcham va mazmunan boy namunalari bo‘lib, ularda millatning ko‘p asrlık tarixiy tajribasi, ijtimoiy qarashlari va madaniy qadriyatlari mujassam bo‘ladi. Har bir xalq o‘z atrofıdagi borlıqni o‘ziga xos tarzda idrok etadi va bu idrok tilda, xususan, paremiologik birliklarda o‘z ifodasini topadi. Ranglar inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib,

ular nafaqat narsa-buyumlarning belgisini bildiradi, balki chuqur ramziy va madaniy ma‘no tashuvchi vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi [1.15].

Zamonaviy tilshunoslikning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan lingvokulturologiya doirasida rang komponentli maqollarni o‘rganish alohida dolzarblik kasb etadi. A. Wierzbickaning ta’kidlashicha, ranglar har bir

milliy dunyoqarashda umumiy (universal) va xususiy (lokal) jihatlarni o'zida mujassam etadi [2.112]. Shu bois rang semantikasi til orqali xalq mentaliteti va madaniy qadriyatlarini anglashda muhim kalit vazifasini bajaradi [3.67–80]. Qizig'i shundaki, bir xil rang turli xalqlarda butunlay boshqacha emotsional va kognitiv tushunchalarni uyg'otadi. Masalan, o'zbek madaniyatida ranglar ko'pincha ma'naviy poklik va an'analar bilan bog'lansa, ingliz madaniyatida esa pragmatizm va psixologik holatlarga ko'proq urg'u beriladi [4.45–52].

Mazkur tadqiqot ingliz va o'zbek tillaridagi rang komponentli maqollarda ranglarning lingvokulturologik konnotatsiyasini aniqlash hamda ularning milliy madaniyatni ifodalashdagi o'rnini qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot obyekti ingliz va o'zbek tillaridagi rang komponentli maqollar bo'lib, predmeti ranglarning madaniy-semantik talqini va madaniy kod sifatidagi funksiyasini qamrab oladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Rang komponentli maqollarning lingvokulturologik tadqiqi ko'plab olimlarning e'tiborini jalb qilgan. W. Mieder o'zining "Proverbs: A Handbook" asarida maqollar tarkibidagi ramziy elementlarning madaniy ahamiyatini ta'kidlab, ularni xalq dunyoqarashining in'ikosi sifatida tavsifagan [5.98–100]. Z. Kövecses metafora nazariyasi doirasida rang leksemalarining konnotativ xususiyatlarini tahlil qilib, ularning madaniy kontekstda turlicha semantik yuklamaga ega bo'lishini asoslab bergan [6.87–90].

G. Lakoff va M. Johnson konseptual metafora nazariyasida ranglarning metaforik xartirovkadagi o'rnini ko'rsatib, til birliklari orqali madaniy tajribaning ifoda etilish mexanizmini yoritganlar [7.25–40]. S. G. Ter-Minsova tillararo muloqotda rang semantikasining madaniy-xususiy qatlamini anglash tarjima sifatini sezilarli darajada oshirishini ta'kidlagan [8.89–102]. G. B. Palmer madaniy lingvistika doirasida rang birliklarining madaniy kod sifatidagi funksiyasini alohida o'rganib, ularning milliy mentalitetni aks ettirishdagi rolini ochib bergan [9.156–170].

O'zbek tilshunosligida T. Azizov rang semantikasining lingvistik jihatlarni tadqiq qilgan [4.45–52], M. I. Rasulova leksik semantikaning asosiy masalalarini yoritgan [10.78–90], D. Sharifova esa o'zbek maqollarining

lingvokulturologik xususiyatlarini maxsus tadqiq qilib, ulardagi rang komponentlarining milliy-madaniy konnotatsiyalarini aniqlagan [11.56–72]. T. Mirzayev, A. Musoqulov va B. Sarimsoqov "O'zbek xalq maqollari" to'plamida keng paremiologik bazani taqdim etganlar [12.3–15]. Biroq ingliz va o'zbek tillaridagi rang komponentli maqollarning qiyosiy-lingvokulturologik tahlili hali yetarlicha o'rganilmagan bo'lib, bu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot qiyosiy-tahliliy, semantik va lingvokulturologik metodlar asosida olib borildi. Faktik material sifatida o'zbek tilidan T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov tahrir etgan "O'zbek xalq maqollari" (2005) to'plami [12], Sh. Shomaqsudov va Sh. Shorahmedovning "Hikmatnoma" lug'ati [13] hamda D. Sharifovning lingvokulturologik tadqiqoti [11] asosiy manbalar sifatida xizmat qildi. Ingliz tilidagi material uchun esa J. Simpson va J. Speakening "The Oxford Dictionary of Proverbs" (2008) [14], W. Miederning "Proverbs: A Handbook" (2004) [5] hamda Z. Kövecsesning metafora nazariyasiga bag'ishlangan monografiyasi [6] asosiy manbalar sifatida foydalanildi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: 1) qiyosiy-tipologik metod — ikki tildagi rang komponentli maqollarning semantik va pragmatik jihatdan solishtirish [15.112]; 2) komponenttahlilimethodi — rangleksemalarining denotativ va konnotativ semalarini ajratish [4.48]; 3) lingvokulturologik tahlilimethodi — rang komponentlarining madaniy kod sifatidagi vazifasini aniqlash [16.134]; 4) kontekstual tahlilimethodi — maqollarning matniy kontekstdagi pragmatik funksiyalarini o'rganish [17.56–70]. Jami 40 dan ortiq rang komponentli maqol (20 tasi o'zbek, 20 tasi ingliz tilida) tanlab olinib, tahlil qilindi.

**Tahlil va natijalar.** Lingvokulturologik yondashuv til birliklarini faqat lingvistik hodisa sifatida emas, balki ularning inson faoliyati, tafakkuri va madaniy tajribasi bilan uzviy bog'liq holda o'rganishni nazarda tutadi [3.67]. Mazkur yondashuv doirasida rang nomlari (xromatonimlar) ishtirok etgan maqollar alohida ahamiyat kasb etib, ular xalqning tarixiy xotirasi, axloqiy-me'yoriy qarashlari hamda estetik ideallarini mujassamlashtiruvchi madaniy kod vazifasini bajaradi [6.98].

O'zbek tilidagi rang komponentli maqollarda ranglar islomiy qadriyatlar, tasavvufiy

ramzlar hamda qadimiy turkiy an'analar bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan. Oq rang o'zbek lingvomadaniyatida poklik, halollik, ezgulik va yaxshi niyat ramzi sifatida talqin qilinadi. Masalan, "Oq niyat – yarim mol" maqolida oq rang insonning ichki dunyosi, niyatining sofliqi va axloqiy komilligi bilan bog'lanadi [12.245]. Shuningdek, "Oq kiygan bilan oq bo'lmas" maqoli orqali tashqi ko'rinish emas, balki ma'naviy poklik va axloqiy mezonlarning ustuvorligi ta'kidlanadi [11.63]. Qora rang esa ko'pincha musibat, og'ir sinov va tashvish bilan bog'liq holda qo'llanadi. "Qora kunning ketidan oq kun kelar" maqolida qora rang qiyinchilik va sinov davrining metaforik ifodasi bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, o'zbek paremiologiyasida "qora" leksik birligi mehnat va matonat semalari bilan ham bog'lanadi. Masalan, "Qora ter to'kmasang, oq non yemasan" maqolida mashaqqatli mehnat orqali daromad topish, bardoshlilik va halollik g'oyasi ta'kidlanadi [12.301].

Ingliz paremiologik fondida rang komponentli birliklar ko'proq pragmatik va psixologik holatlarni ifodalashga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Ingliz tilidagi "The pot calls the kettle black" maqoli insonning o'zida mavjud bo'lgan kamchilikni tan olmay, aynan shu nuqsonni boshqalarga yuklashi holatini ifodalaydi. Ushbu maqolda black rang komponenti salbiy baholovchi konnotatsiyaga ega bo'lib, axloqiy nuqson va ikkiyuzlamachilik ramzi sifatida namoyon bo'ladi [6.98–101].

Blue (ko'k) rang ingliz tilida hissiy holat va axloqiy baho bilan bog'liq bo'lib, ayrim hollarda sadoqat va barqarorlik ramzi sifatida ham namoyon bo'ladi. Bu holat ingliz paremiologiyasida "True blue will never stain" maqolida yaqqol ifodalanadi. Mazkur maqolda blue rang komponenti ijobiy konnotatsiyaga ega bo'lib, sadoqat, halollik va o'zgarmas axloqiy fazilatlarining ramzi sifatida talqin etilgan [5.98–100].

Green (yashil) rang ingliz madaniyatida tabiat va yangilanish bilan bir qatorda tajribasizlik va yetilmaganlik ramzi sifatida ham talqin etiladi. Bu holat "A green wound is soon healed" maqolida yaqqol ifodalangan. Mazkur maqolda green rang komponenti tajribasizlik va vaqt omiliga bog'liq yetilmaganlikni anglatuvchi semantik birlik sifatida namoyon bo'lgan [6.87–90].

Chog'ishtirma tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, oq va qora ranglari har ikki tilda ham antitezali munosabat hosil qilib, "ezgulik – yovuzlik"

oppozitsiyasini ifodalaydi [10.82]. O'zbek paremiologiyasida so'zning ehtiyotsiz qo'llanishi salbiy baholanadi. Xususan, "Qizil til boshga balo" maqolida rang komponenti orqali so'zning xavfli va ijtimoiy oqibatlariga olib keluvchi xususiyati ifodalanadi [13.178]. Ingliz paremiologiyasida red rang ko'pincha xavf, ogohlantirish, cheklov va keskinlik bilan bog'liq semantik yuklamaga ega bo'lib, bu holat "Red sky in the morning, shepherd's warning" kabi maqollarda yaqqol namoyon bo'ladi [14.268–269]. Bu holat rang komponentli maqollarning to'liq leksik muqobillikdan ko'ra, ko'pincha funktsional-semantik muqobillik asosida mos kelishini ko'rsatadi [15.180].

Tadqiqot natijasida aniqlangan ranglarning madaniy-semantik xususiyatlari quyidagi jadvalda umumlashtirildi:

1-jadval. Ingliz va o'zbek tillaridagi ranglarning qiyosiy simvolikasi

Rang komponenti	O'zbek madaniyatidagi semantikasi	Ingliz madaniyatidagi semantikasi
Oq (White)	Poklik, halollik, ezgu niyat, omad, duolar va ijobiy hayotiy boshlanish ramzi	Beg'uborlik, tinchlik, tartib, poklik va rasmiylik ramzi
Qora (Black)	Musibat, og'ir mehnat, zulm, kulfat va salbiy hayotiy holatlar timsoli	Nuqson, noqonuniylik, yashirinlik, motam va salbiy hodisalar timsoli
Yashil (Green)	Jannatmonandlik, unumdorlik, baraka, yangilanish va hayotiylik ramzi	Hasad (green with envy), tajribasizlik, tabiat va ekologiya bilan bog'liq tushunchalar
Qizil (Red)	Go'zallik, hayotiy kuch, shodlik, to'y-hasham va quvonch ramzi	Xavf, hayajon, qat'iy taqiq (red tape), jasorat va kuch timsoli

**Xulosa.** Mazkur tadqiqot ingliz va o'zbek tillaridagi rang komponentli maqollar lingvokulturologik jihatdan yuqori informativlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Qiyosiy tahlil natijasida ranglar semantikasi ikki qatlamda namoyon bo'lishi aniqlandi: birinchisi universal qatlam bo'lib, unda oq–qora oppozitsiyasi orqali "ezgulik–yovuzlik", "yengillik–qiyinchilik" kabi umuminsonga xos antitezalar ifodalanadi; ikkinchisi esa milliy-madaniy qatlam bo'lib, unda ranglar har bir xalqning tarixiy tajribasi, diniy qadriyatlarini va psixologik tasavvurlari bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Xususan, o'zbek paremiologiyasida oq rang poklik va ezgulik, qora rang esa sinov va mashaqqat bilan birga mehnat-matonat semalari bilan bog'langan bo'lsa, ingliz paremiologiyasida rang komponentlari ko'proq psixologik holat va pragmatik baholashni aks ettiradi. Shuningdek, rang komponentli birliklarning ko'p holatda to'liq leksik moslikdan ko'ra funktsional-semantik muqobillik asosida tarjima qilinishi zarurligi aniqlanib, tarjimada madaniy kontekstni hisobga olish muhimligi asoslandi. Kelgusida rang

komponentli maqollar korpusini kengaytirish hamda ularning tarjima strategiyalarini tizimli o'rganish mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarning amaliy samaradorligini oshiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Mieder W. Proverbs: A Handbook. — Westport: Greenwood Press, 2004. — 305 p.
2. Wierzbicka A. Semantics, Culture, and Cognition: Universal Human Concepts in Culture-Specific Configurations. — Oxford: Oxford University Press, 1992. — 487 p.
3. Kharitonova I. Rang simvolikasi va paremiologiya // Lingvistika jurnali. — 2013. — № 45(3). — B. 67–80.
4. Azizov T. O'zbek tilida rang semantikasi // Filologiya masalalari. — 2018. — № 4(2). — B. 45–52.
5. Mieder W. Proverbs: A Handbook. — Westport: Greenwood Press, 2004. — 305 p.
6. Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction. — Oxford: Oxford University Press, 2010. — 285 p.
7. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. — Chicago: University of Chicago Press, 1980. — 242 p.
8. Ter-Minasova S. G. Language and Intercultural Communication. — Moscow: Slovo, 2000. — 261 p.
9. Palmer G. B. Toward an Anatomy of Cultural Linguistics. — Chicago: University of Chicago Press, 1996. — 348 p.
10. Rasulova M. I. Fundamentals of Lexical Semantics. — Tashkent: Fan, 2010. — 198 p.
11. Sharifova D. O'zbek maqollarining lingvokulturologik xususiyatlari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. — 184 b.
12. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. — Toshkent: Sharq, 2005. — 512 b.
13. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma: O'zbek maqollarining izohli lug'ati. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001. — 448 b.
14. Simpson J., Speake J. The Oxford Dictionary of Proverbs. — Oxford: Oxford University Press, 2008. — 352 p.
15. Nida E. A., Taber C. R. The Theory and Practice of Translation. — Leiden: Brill, 1969. — 220 p.
16. Safarov Sh. Pragmalingvistika. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. — 256 b.
17. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. — London: Routledge, 2018. — 332 p.
18. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. — Cambridge: Cambridge University Press, 2003. — 506 p.
19. Newmark P. A Textbook of Translation. — New York: Prentice Hall, 1988. — 292 p.
20. Yusufov O. Comparative Typology of English and Uzbek Languages. — Tashkent: Muharrir, 2021. — 214 p.
21. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma: O'zbek maqollarining izohli lug'ati. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001. — 448 b.